
JARAYON: ICHKI TUPROQLI YO'LLAR SHAG'ALLASHTIRILDI

Toshloq tumanida olis qishloqlardagi ichki yo'llarni ta'mirlash, asfaltlash hamda tuproqli yo'llarni shag'allashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Hafta davomida tumandagi 32 ta MFYlardagi 17 km. lik tuproqli ichki yo'llarida shag'allash ishlari bajarildi. Xususan, Farog'at MFY hududidagi Garbobo ko'chasidagi 2 km ichki yo'llar ham shag'allashtirildi. Ushbu sa'y-harakatlarda mahalla hokim yordamchisi hamda aholi faol ishtirok etmoqda. Toshloq tumanida ichki yo'llarni sifatini yaxshilash, tuproqli ichki yo'llarni shag'allash ishlari yil yakuniga qadar davom etadi.

2022-11-24 09:03:04